

**BOLALAR ADABIYOTINI O'QITISHDA ERTAKLARNING  
TARBIYAVIY AHAMIYATI**

*Mahamadaliyeva Nafisa*  
*Boshlang'ich ta'lim' yo'nalishi 2 bosqich talabasi*  
*+998974140011*

**Kirish**

Yosh avlodni bilimli, dono va axloqli qilib tarbiyalashda ertaklarning o'rni juda muhim. Ertak bola uchun axloqiy ta'limot va nasihatlardan ko'ra afzalroqdir. U yaxshilikka ishonchni uyg'otadi, qiyin vaziyatda yechim topishga, odamlar bilan munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi. Ertak bolaningadolat, sevgi, do'stlik, yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurini shakllantiradi.Ushbu maqolada ertaklar orqali bola psixologiyasiga qanday ta'sir o'tkazish haqida so'z boradi.

Hozirda ta'lim-tarbiya tizimida asl milliy qadriyatlarga tayanish tobora qaror topib bormoqda va ko'ngil tarbiyasiga, ya'ni inson ma'naviyatini shakillantirishga birlamchi vazifa sifatida yondashish ustuvor bo'lib bormoqda. Binobarin, yosh avlodni yoshligidan ma'naviyatli qilib tarbiyalashga e'tibor berib borilsa, u o'zining katta samarasini beradi.Bolalarimizda kitobga mehr, ishtiyooq uyg'otish uchun, avvalo, o'zimiz unga to'g'ri munosabatda bo'lishimiz lozim. Adabiyotga mehr qo'yishning o'zida bir hikmat bor.

Ertaklar aqlga ham, yurakka ham faol ta'sir ko'rsatadi: aqlni to'ldiradi, yurakni hissiyotchan qiladi. Barchamiz bolalarimizning jasur va intiluvchan, diyonatli, e'tiqodli, aqli bo'lib voyaga yetishini istaymiz. Buning uchun esa, uning tarbiyasiga ijobjiy ta'sir qiladigan, aqliy salohiyatini o'stiradigan ertaklardan foydalansak bo'ladi. Ertaklar bolaga umid beradi. Bola qanchalik Yangi yil kechasi sovg'a olib keladigan Qorboboga ishonsa, u shunchalik hayotga optimist ko'z bilan qaraydi. Ertaklar orqali biz bolani tarbilaymiz, uning ichki dunyosini boyitamiz, qalbini davolaymiz, hayot haqida bilim beramiz, xayolini o'stiramiz. Haqiqiy ertakning asosiy belgisi bu - uning yaxshilik bilan tugashidir. Bu bolaga psixologik himoyalanganlik tuyg'usini beradi. Ertaklarda nimaiki sodir bo'lmasin,yaxshilik bilan yakun topadi, ertak qahramonlarining boshiga tushgan barcha sinovlar ularni yanada kuchli va aqli qiladi. Boshqa tomondan, bola yomon xatti-harakatlarni amalga oshirgan qahramonlarning, albatta, qilmishlariga yarasha jazo olishlarini ko'radi. Barcha sinovlardan mufaqqiyatli o'tgan, o'zining barcha ijobjiy hislatlarini namoyon qilgan qahramonlarning esa albatta mukofotlanishiga amin bo'ladi.

Ho'sh, nima uchun bolallar adabiyotida ertaklar janri yetakchilik qiladi? Tarbiyalashning yana qanday usullari bor? O'zbek xalq ertaklarida asosiy qahramonlar qanday gavdalanadi?

Ta'lim va tarbiya jarayonida hikoya qilish metodi sifatida bir nechta ertaklarni tahlil qilaylik, **Zumrad va Qimmat** ertagida bir qishloqda bir uyda ota va uning qizi Zumrad, o'gay ona va uning arzanda qizi Qimmat haqida hikoya qilinadi. Zumrad judayam odobli va mehribon edi. U uyida hamma ishlarni o'zi qilardi. Judayam mehnatsevar qiz edi. Qimmat esa dangasa, odobsiz va jahldor qiz edi. Bir kuni cholga o'gay ona Zumrad qizini o'rmonga adashtirib kelishini buyuradi. Ota va qiz o'rmonga ketishadi. Ota qiziga shu yerda o'tirib tur deb o'zi o'tin olgani ketadi. Tun bo'ladi Zumrad judayam qo'rqadi. Va shu payt sehrgar kampir kelib uni o'zini uyiga mehmonga olib ketadi. Zumrad u kampirni o'z onasidey yaxshi ko'radi. U kampirga uy ishlarida yordamlashadi.

Bir kuni kampir qizga tomga chiqib o'tin olib kelishini etadi. Va Zumrad tomga chiqib, o'z qishlog'ini ko'rib yig'laydi. Va kampir unga yer to'лага tushib, oq va qizil sandiq bor sen oq sandiqni olib chiq dedi. Zumradga chiroyli arava keladi va kampir bu sandiqni uyga borganinda ochgin deydi.

Zumrad uyiga borib, sandiqni ochsa ichi to'la tillalar, taqinchoqlar bo'ladi.

Buni ko'rgan kampir cholga maniyam qizimni adashtirib kel deydi.

Qimmatni ham sehrgar kampir kelib olib ketadi. Qimmat kanpirga ut ishlari umuman qarashmaydi dangasa bo'ladi. Qimmat ham bir kuni uyga ketmoqchi bo'ladi. Kampir unga qizil sandiq olib chiq deydi. Va uyga olib ketadi. Uyga olib kelib, kampir bilan Qimmat uyni eshiklarini derazalarni yopib sandiqni ochishsa, ichida ajdarho chiqib, ularni yutib yuboradi.

So'ng chol va Zumrad tinch totuv yashashadi.<sup>1</sup>

**"Zaynab va Tariq"** ertagi esa quyidagicha boshlanadi. O'rmonning yonida bir qishloq bor edi. Bir kuni, Zaynab va Tariq buvasini ko'rgani bormoqchi edi. Onalaridan ruxsat so'rashdi. Yo'lda ketayotganda, tog' qulupnaylarini ko'rib, qolishadi. Qulupnaylarni buvamiz yaxshi ko'radilar deb, dastro'molga qulupnaylarni solib, o'rab olishadi. Va yo'lda ketishyotganida, osmonda uchib yurgan uch qirrali varraklarni ko'rib, bizni ham shunday varragimiz bo'lsa deyishadi. Biroz o'tib varrak daraxtga ilinib qoladi. Va bolakay ho'ngrab yig'laydi. Zaynab va Tariq esa bolakayga yordam bermoqchi bo'lib, daraxt yoniga kelishadi. Daraxtdan yong'oqlar tushayotgan edi. Daraxtga qarashsa, olmaxonlar bor ekan. Olmaxonlardan varrakni olib berishini iltimos qilishadi va varrakni olib bolakayni xursand qilishadi. So'ng yo'llarida davom etishadi. Buvasinikiga borib, qulupnaylarni berishadi buvasi esa juda xursand bo'ladi. Va ularga ham sovg'a tayyorlab qo'yanini aytadi. Zaynab bilan Tariq stolga qarashsa, ustida uchburchakli 2ta varrak turgan edi. Bolalar juda quvonishadi va buvasiga rahmat aytib, varraklarni uchirgani ko'chaga chiqib ketishadi.

Osmonda uchayotgan varraklarni ko'rib, Zaynab va Tariqni mamnun bo'lishdi.

<sup>1</sup> <https://fanvatalim.uz/uz/article/46/>

**“Otlar ham shirin so'zni tushunadi”** ertagida esa ko'chada otlar taq-tuq qilib, egalari buyurgan xizmatlarni qilishardi. Faqatgina 5ta ot hech ham yurmaydigan bo'lib qoldi. Egasi otlar yurmayotganidan tashvishda edi chunki otlar yurmasa uni ishlari bitmas edi. Oиласини boqolmas edi.

Bir kuni otlarni egasi otlarini sotmoqchi bo'libdi. Bozorda otlarini juda arzon narxga sotib yuboribdi. Uni o'rniga 3ta qo'y sotib olibdi. Va bir necha kunlardan keyin u otlarni ham sotib yuboribdi. O'rniga 2ta ot olibdi. U otlarini urib-urib xizmatini qildirmoqchi bo'lar edi.

Bir kuni otboqar boshqa bir otboqarni ko'rib uni kuzatipti u otboqar otlarini erkalab ularga yaxshi gapirarkan. Otlar ham uni etkanini chopib-chopib bajarishar ekan. Shundan keyin otboqar xatosi nimada ekanini chunib yetibdi. U ham otlarini erkalab ularga yaxshi gapirib, xizmatini qilidirar ekan.

So'ng boshqa otboqarlar ham otlariga yaxshi gapirishni o'rganishipti.

**“Xasis boy va uning o'g'illari”** esa bir paytlar bir xasis boy yashagan ekan. Uning 3 o'g'li bor ekan. Ular ham xuddi otasidek xasis ekan. Boylik topish maqsadida har qanday yomon ishlardan ham qolmas ekan. Kunlardan bir kun ular boyliklarini yana ko'paytirish maqsadida yo'lga chiqishibdi. Yo'lda bir oltin g'isht topib olishibdi. G'ishtni bir chetidan sindirib, eng kichik ukasiga yeyishga biror bir yegulik olib kelishini aytibdi. Ukasi ketishi bilan akalarining fikri buzilibdi: Agar oltinni uchga bo'lsak, bizga juda kam qoladi shuning uchun ikkiga bo'lib, ukamiz kelishi bilan uni o'ldiramiz debdi.

Ukasi bozorga ketayotib o'ylabdi: Agar oltinni 3ga bo'lsak juda kam tegadi. Undan ko'ra oltinni butunligicha men olsam, akalarimni esa hozir olib borib beradigan ovqatga zahar solib ularni o'ldiraman debdi. Shunda men butun davlatda boy bo'laman debdi. Ukasi kelishi bilan akalari uni bo'g'ib o'ldirishibdi, so'ng akalari ham ovqatni yeb zaharlanib o'libdi. Shunday qilib, ochko'z boyning tarbiyasini olgan o'g'illar ham boylik deb, o'z jonlaridan ajralishibdi.

Keyingi ertak esa **“Ikki o'rtoq”** bo'lib, unda bir mergan yo'ldan o'tib ketayotgan ekan. Merganning qo'lida g'oz bor ekan. Yo'lda qorni ochib ketayotgan ikki o'rtoq : Shu merganni g'ozini yeb bo'lmasmikan? debdi. Ikkisi maslahatlashib, merganni chaqirishibdi. Mergan kelibdi. Mergandan g'ozini so'rashibdi. Mergan: Yaxshi, ola qoling, birga yeysiz debdi. Ikki o'rtoq g'ozni qozonga solib pishirishibdi. Keyin: Endi uxlaymiz, kim yaxshi tush ko'rsa, g'ozni o'sha yeydi deyishibdi. Mergan ham rozi bo'libdi.

Uchovi uqlashga yetibdi, lekin mergan uqlamabdi. Pishgan g'ozni yeb qo'yibdi. Ikki o'rtoq uyqudan uyg'onishibdi. O'rtoqlarning biri ikkinchidan: Nima tush ko'rning? deb so'rabi. Ikkinchisi: Men osmonda uchib ketayotgan ekanman, senchi?

Men dengizda suzib ketayotgan ekanman debdi keyin ular Mergandan so'rashibdi.

Men bittangizni osmonda uchib ketayotganingizni, ikkinchingizni dengizda suzib ketayotganingizni ko'rdim. Ikki o'rtada g'oz qolib ketmasin deb, yeb qo'ya qoldim.

**"Xolsiz"** ertagida esa **ona** xonqizi kutgan kun keldi. Bolalari birin ketin tuxumni yorishni boshlashdi. Ularning hammasi ko'zini quvnatadigandek chiroyli, lekin 1tasida umuman xol yo'q edi.

Uni ko'rgan hamma xolsiz deb chaqirardi. Buni xolsiz bilmas edi. Bir kuni daryoda o'zini aksini ko'rib, xavotirga tushdi. U juda tashvishlandi. Shu payt uzoqdan akasi kelayotganini ko'rdi. Akasi unga: Istanang sen uchun o'rmondan xol izlaymiz dedi. Aka-uka birgalikda o'rmonga ketishdi.

Birdan xolsizning ko'zlari guldag'i xollarga tushdi. "Go'zalim gul, menga xollarindan bera olasanmi?"-dedi. Xolsizning bu shirin muomalasidan gul xursand bo'lib, va "Albatta" deb javob berdi.

Qoyil endi mandayam 1ta xol bor deb quvondi. Lekin bu yetarli emas edi. Yana yo'lida davom etishdi. Osmonda uchayotgan kapalakni ko'rib qolishdi. Kapalakning bejirimgina xollari bor edi. Xolsiz unga yolvordi:"Go'zal kapalak, naqadar chiroyli xollaring bor ulardan ikkitasini menga bera olasanmi?"

Kapalak Xolsizning xush muomalasidan quvonib, xollaridan 2tasini oldida, unga berdi. Xolsizning endi 3ta xollari bo'ldi.

Biroq bu yetarli emasdi. Aka-uka xol izlashda davom etishdi. Shu payt tim qora xollari oppoq terisiga yarishgan kuchukchaga duch kelishdi. Xolsizning akasi uning quloqlariga uchib, unga "fis,fis,fis,"deya bir narsalarni tushuntirdi. Kuchucha jilmayib, ko'zining chetidagi xollaridan 3 tasini Xolsizga berdi. Endi Xolsizning 6ta xoli bor edi.

Xolsiz:"Yashasin! Yashasin!" dedi. Lekin 6ta xol ham boshqa xonqizilardek bo'lishi uchun yetarli emasdi. Kuchukcha xolsizga shunday dedi:"Vov, vov, vov men dalaga chiqib u yerdag'i xo'rozdan senga xol berishini so'rayman, vov, vov". Birozdan keyin qaytib kelgan kuchukcha qo'lidagi xo'rozdan olgan xollarini Xolsizga berdi. Xo'roz unga 4ta xolni bergandi. Endi xolsizning 10ta xoli bor edi. Xolsiz uchib, uchib daryoga keldi. Xollarini uzoq tomosha qildi. "Xollarim menga yarashib turibdi",-deb o'yładi. O'sha onda butun oila a'zolari uni kuzatib turganini sezdi. Hamma uni olqishladi.

Xolsizning xollari judayam chiroyli edi. Faqat undan ham muhimi, oilasining unga bo'lgan sevgisi va e'tibori edi.

### **Keying ertaklar, Sohibini izlagan uy**

O'rmonning eng go'zal joyida, sharvirab oqqan soyning chetida, chirmovuqlarning orasida bir shirin, go'zal uy bor edi. Biroq bu uyning haligacha sohibi yo'q edi. O'rmonda yashaydigan hamma hayvonlar u uyda yashashni hohlashardi. Ammo, qaysi hayvon loyiqligi haqida bir qarorga kelishmadi.

Bir kuni o'rmon qiroli sher butun hayvonlarni to'plabdi."Bunaqasi ketmaydi bu uy albatta egasini topishi kerak debdi. Eng yaxshisi ichimizda bir musobaqa o'tkazamiz. Bu uyga yashashga loyiq hayvонни topaylik" debdi.

Musobaqaning shartlari belgilandi. Hakamlar ham saylandi. Musobaqaning sharti shunday "Uyga ega chiqishni istagan hayvonlar bir hafta shu uyda yashaydi Hakam bo'lgan hayvonlarni uyda mehmon qilishadi. Mehmonlarni eng yaxshi kutgan oila uyning haqiqiy egasi bo'ladi"

Uyga avval jayronlar oilasi joylashibdi. Hakamlar barchasi yig'ilib mehmonga kelishibdi. Jayronlar chiroqli ziyofat berishibdi. Faqat birligina xatolari bilan musobaqani boy berishibdi. Xato shunda ediki, kelgan mehmonlarga "Xush kelibsiz" deyishni unutishgan edi. Keyin olmaxonlar oilasi joylashishdi. Ularning ishlari ham chakki emasdi. Faqat jayronlar kabi bir xato qilishdi. Mehmonlardan "Yaxshimisiz?" deya hol ahvol so'rashmadi.

Navbat ayiq oilasiga kelgandi. Ular mehmonlarni ochiq chehra bilan bilan kutib olishdi. Mehmonlardan hol-ahvol so'rashdi. Lekin mehmonlarga hech nima tayyorlamaganliklari bois musobaqadan chetlatildi.

Ilonlar oilasi esa afsuski, ochiq chehrali emasdi.

Keyingi navbat quyonlarga keldi.

Quyonlar ziyofat berishda juda e'tiborli bo'lishdi. Mehmonlar kelishidan avval ular uyni yaxshilab tozalashdi. Yeguliklar tayyorlishdi.

Mehmonlarni tabassum bilan kutib olishdi. Ularga "Xush kelibsiz", "Ahvolingiz qanday?" - deyishdi. Mehmonlar ulardan benihoya xursand bo'lishdi.

"Hoy quyonlar! Biz sizlardan xursand bo'ldik" deyishdi.

Nihoyat o'rmondagi barcha hayvonlar bir ovozdan quyonlarni musobaqaning g'olib deb topishdi. Quyonlar oilasi uzoq yillar mobaynida bu uyda baxtli hayot kechirishdi. Tabiiyki, ularning uyiga tez-tez mehmon kelib turadi.

**Bir o'rmonda** tulki bilan quyon yashar ekan. Tulkining muzdan, quyonning esa daraxt po'stlog'idan yasalgan uychali bor ekan. Bahor kelib tulkining uychalari erib ketibdi, quyonni esa mustahkam turaveribdi. Tulki quyondan uning uychasida yotib turishni so'rabi, quyon rozi bo'libdi. Lekin tulki uning o'zini uyidan haydab chiqaribdi.

Quyoncha yo'lda yig'lab ketayotsa, oldidan it chiqibdi: "Vov, vov, vov! Quyoncha nega yig'layabsan?" - deb so'rabi. "Nega yig'lamayin? mening po'stloqdan, tulkining muzdan yasalgan uychalarimiz bor edi, tulki menikida yotib turishni so'rabi, men rozi bo'ldim, oqibatda u meni o'z uyimdan haydab chiqardi", - debdi quyon. "Yig'lama, yur quyoncha! Men senga yordam beraman."

Ular uchaning oldiga kelishibdi. It vovullab beribdi: "Vov, vov, vov! Qani tulki , bu yerdan yo'qolchi!". Tulki pechkaning ortidan: "Hozir chiqib seni mayda-mayda bo'laklarga bo'lib tashlayman!" - debdi. Bundan it qo'rqib qochib ketibdi.

Quyoncha yig'lagancha yana yo'lida davom etibdi. Oldidan ayiq chiqibdi:"Nima bo'ldi quyoncha, nega yig'layapsan?"- deb so'rabdi ayiq. "Nega yig'lamayin? Mening po'stloqdan, tulkingin muzdan yasalgan uylarimiz bor edi., tulki menikida yotib-turishni so'radi, men rozi bo'ldim, oqibatda u meni o'z uyimdan haydab chiqardi",- deb javob beribdi quyon. Shunda ayiq:"Yig'lama, quyoncha! Men senga yordam beraman",-debdii.

Ular uychaning oldiga kelishganda, ayiq:"Qani, tulki, bu yerdan yo'qolchi!"-deb o'kiribdi. Tulki pechkaning ustidan: "Hozir chiqib seni mayda-mayda bo'laklarga bo'lib tashlayman!"-desa, ayiq ham qo'rqib qochib ketdi.

Quyoncha yig'lagancha yana yo'lida davom etibdi. Oldidan xo'kiz chiqibdi:"Nima bo'ldi quyoncha. nega yig'layapsan?"-deb so'rabdi xo'kiz.

"Nega yig'lamayin? Mening po'stloqdan, tulkingin muzdan yasalgan uylarimiz bor edi, tulki menikida yotib- turishni so'radi, men rozi bo'ldim, oqibatda u meni o'z uyimdan haydab chiqardi", -deb javob beribdi quyon. Shunda xo'kiz:-"Yig'lama quyoncha! Men senga yordam beraman",- debdi.

Ular uychaning oldiga kelishganda, xo'kiz:- "Qani, tulki, bu yerdan yo'qolchi!" deb o'kiribdi. Tulki pechkaning ortidan:"Hozir chiqib seni mayda-mayda bo'laklarga bo'lib tashlayman!"-desa, xo'kiz ham qo'rqib qochib ketibdi.

Quyoncha yana avvalgidek, yig'lab ketaversa, yo'lda unga chalg'ili xo'roz duch kelibdi: "Qu-qu-qu! Nima uchun yig'layapsan, quyoncha?"-deb so'rabdi xo'roz. Quyon har doimgidek: "Nega yig'lamayin? deb bo'lgan voqealarni aytib beribdi.

Xo'roz: Yur men senga yordam beraman - debdi. Yo'q xo'rozjon, yordam berolmaysan menga. It quvolmadi, ayiq quvolmadi xo'kiz quvolmadi sen ham quvolmaysan-debdi. Xo'roz bo'lsa, yo'q quvaman!-debdi.

Ular uychaning oldiga kelishganda xo'roz etigini yerga urib qanotlarini qoqib:"Qu-qu-qu! Yelkamda bordir chalg'i tulkini qilgum cho'zg'i. Tez yo'qol bu yerdan tulki deb qichqiribdi. Tulki buni eshitib qo'rqnidan"Kiyinyapman"-debdi. Xo'roz yana qu-qu-qu deb boyagi gapini takrorlabdi.

Tulki uychadan chiqib o'rmonga qarab qochibdi. Quyoncha esa yana avvalgiday o'zining po'stloqli uychasida yashay bo'shabdi.

### **Yetti Ahmoq**

Bir kuni yetti ahmoq bozorga chiqishibdi. Yurib- yurib qornilarini ochibdi. Ular pul yig'ishib, yetta xurmacha qatiq va yetta non olishibdi. Endi olgan narsalarini yeyish uchun joy izlashib, bir chekkaga o'tishibdi. Ular atrofga qarasalar, qo'llarini yuvish uchun suv ko'rinxabdi. Shunda ularning eng kattasi boshqalariga suv keltirishni buyuribdi. Ular bir- birlariga sansalorlik qilib, hech qaysisi unamabdi.

Shunda ahmoqlar bir-biriga shart qo'yishibdi. "Agarda kim gapirsa, o'sha qo'lga suv olib kelib quysin", deyishibdi. Shunday qilib, ahmoqlar indamasdan o'tiraverishibdi.

Shu payt, bir gadoy kelib tilanibdi. Unga hech kim javob bermabdi. U nonni olib yeb,qatiqni ichib idishning yuqini ahmoqlar betiga surkab ketibdi.

Bir ozdan keyin bir it kelib, qolgan non ushoqlarni yesa ham ular indamay o'tiraverishibdi. It non ushoqlarini, idish yuqlarini yalabdi. Oxiri itning qorni to'y may qolib, bir chekkadan ahmoqlarning betidagi gadoy surkab ketgan qatiqlarni yalay boshlabdi. It oltita ahmoqning betini yalab yetinchisini yalayotganda,itning tili og'ziga kirib ketibdi. Shunda haligi ahmoq: "Ket!" deb yuboribdi. Oltita ahmoq birdaniga:"Tur, qo'lga suv keltir!" deb qichqiribdi. Qarashsaki, oldilarida na non bor va na qatiq.

### **Aqli Qarg'a**

Kunlar yoz fasli bo'lgani uchun har yerda suvlar qurirmush. Bechora Qarg'a suv yo'qligidan nihoyatda chanqagan ekan. Tillari osilib, har tarafdan suv axtarmoqda ekan, birovning oldinda turgan ko'zani ko'rib, yoniga kelib boqsa, ichinda suv bor. Lekin bo'ynini suqub ichay desa, bo'yi yetmaydi. Biroz o'ylandi-da, tumshug'i ila toshlarni yeg'ub, ko'zaning ichiga tashlay boshladи. Oz vaqt ichinda ko'zaning ostindagi suv ustiga chiqib, tosha boshladи. Aqli Qarg'a suvdan ichib, tashnalik balosidan qutulib, uchib ketdi.

Shu o'rinda aytish joizki, 'Tarbiyalashning yana qanday usullari bor?' degan savolga Masaru Ibukaning 'Uchdan keyin kech' kitobidagi bolaning tarbiyalash usullariga doir foydali bir qancha maslahatlarni berib ketmoqchiman:

1. Bola kichik yoshidanoq insoniyatning eng yaxshi yutuqlari ichida bo'lsin. Mumtoz musiqa tinglang, san'at asarlarini ko'rsating, badiiy adabiyot o'qib bering.
2. Bolani tez-tez qo'lingizda ko'taring. Bunday muloqat bolaning aqliy rivojlanishida katta ahamiyatga ega.
3. Chaqaloq bilan chuchuk tilde gaplashmang. Bola bilan tug'ilgan paytidan boshlab kattalar tilida gaplapping.
4. Bolani cheklamang. Bola qo'llari bilan amalga oshiradigan barcha mashg'ulotlar uning aqliy qobiliyatini va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantiradi.
5. Bolani ehtiyojkorlik bilan maqtang va jazaolang. Ayniqsa, o'g'il bolalarni ishlari uchun maqtash kerak, juda kam jazolang.
6. Bolada biror narsaga qiziqish uyg'oting. Buning uchun barcha sharoitlarni yaratib bering.
7. Bolaga nafaqat ona, ota ham kerak. Ota va farzand o'rtasidagi muloqotda hech qanday cheklovlar bo'lmasligi darkor.
8. Bolada qo'l orqali his qilish qobiliyatini rivojlantiring. Bolaga turli materiallar-yumshoq va qattiq, og'ir va yengil, tekis va g'adir-budur predmetlarni bering.
9. Bolaga u so'ragan barcha o'yinchoqlarini sotib olib bermang. O'yinchoqlarning ko'pligi diqqatni oladi, buning oqibatida ilm olishi murakkablashadi.

10. Bolalarni tarbiyalashdan oldin ularning ota -onlari, ya’ni o’zimizni tarbiyalshimiz lozim.

O’zbek xalq ertaklarida asosiy qahramonlar qanday gavdalanadi? degan savolga yuqorida keltirib, o’tilgan ertaklardan ba’zi obrazlarni tasnifini ko’rib chiqamiz:

Zumrad va Qimmat ertagida, Zumrad obrazi juda mehribon, aqli, ozoda, sarishta, chaqqon, qiyinchilik ko’rgan, o’gay ona qo’lida qolgan, hammaga yaxshi munosabatda bo’ladigan oqila qiz sifatida tasniflangan. Qimmat esa uning aksi, ya’ni juda dangasa ishyoqmas, erka-tantiq, qo’pol hammaga yomon gapiradigan qiz sifatida obrazlangan.

Keyingi Otlar ham shirin so’zni tushunadi degan ertakda bir otning obrazi yaratilgan u juda shirin so’zga muhtoj bo’ladi. Ammo uning egasi unga doim yomon munosabatda bo’ladi. Lekin boshqa bir otning egasi unga shirin so’z aytadi. Va uning oti ham egasiga yaxshi xizmat qiladi. Demak, shundan ko’rinib turibdiki, faqatgina insonlarga emas, balki Alloh taolo yaratgan barcha mavjudotlarga yaxshi munosabatda bo’lish lozimligini o’rgatadi.

Navbatdagi ertagimizda, ‘Xasis boy va uning o’g’illari’ deganda biz birinchi ta’rafdan, ko’rishimiz mumkinki, xasislik oraqsidan aka-ukalar o’z joniga qasd qilishga borishibdi. Bunda, ‘Qush uyasida ko’rganini qiladi’ degan maqolni yodimizga olishimiz mumkin. Chunki bola ota -onasidan o’rnak oladi. Ayniqsa, o’gil bolada otaning o’rni juda muhim. Ya’ni bola ota- onasi nima qilsa, shu to’g’ri deb biladi. Buning yechimi esa faqatgina bitta, bu ham bo’lsa, biz farzand tarbiyalashimizdan oldin o’zimizni,o’zligimizni anglab, tarbiyalashimiz zarur. Ikkinci ta’rafdan, esa bolalarga bu ertakda xasis bo’lish yomon oqibatlarga olib kelishligini, xasis emas, balki saxiy bo’lsa inson ko’p yaxshiliklarga ega bo’lishi ko’rsatib o’tilgan.

Demak, ‘ Ertaklar -yaxshilikga yetaklar’deb bejizga aytilmagan. Bundan tushunish mumkinki, bola tarbiyasida ertaklar ham juda muhim rol egallaydi. Shuning uchun bolalarga ko’proq ertaklar hikoya qilib berilsa, u bolada o’ziga bo’lgan ishonch oratadi va bola rivojlanadi. Yaxshi- yomonni ajrata olish ko’nikmasi shakllanadi.

**Ta’lim tarbiya jarayonida hikoya qilish metodi**

Hikoyalar turlari va ularni o’rgatishning izchilligi. Hikoya o’quv materialini bolalar uchun tushunarli tarzda bayon etish imkonini beruvchi og‘zaki metodlardan biri. Hikoya turli mazmundagi bilimlar obrazli shaklda taqdim etiladi. Bolalar uchun hikoyalar kundalik voqealar, yil fasllari, yozuvchilar, rassomlar, ona shahri haqida bo’lishi mumkin. Hikoya qilish uchun material sifatida badiiy asarlardan foy- dalanish mumkin. Ayniqsa, bolalar uchun tarbiyachining shaxsiy tajri- basi bilan bog‘liq hikoyalar qiziqarlidir: «Mening bog‘cham», «Mening oilam», «Mening sevimli o‘yinchog‘imi va boshqalar. Hikoyani tushunish qobiliyati, ya’ni tinglay olish, mazrouniga munosabat bildira olish, savollarga javob berish, oddiy qayta aytib berish

uch yoshdan boshlab paydo bo‘ladi. Kichik guruhlarda hikoya ko‘rgazmali materialami (narsa-buyumlar, ulaming tasviri) namoyish qilish bilan birga qo‘sib olib boriladi. Ko‘rgazmali materiallardan bolalar tasawurga ega bo‘lmagan voqeа-hodisalar haqida hikoya qilinganda o‘rta va katta maktabgacha yosh guruhlarida ham foydalaniladi. Biroq, katta guruhlarda hikoya qilish jarayonida ko‘rgazmali materiallardan keragidan ortiqcha foydalanish tavsiya etilmaydi. Chunki bolalarni so‘z yordami- da fikrlashga o‘rgatish, ularda fazoviy tasawumi rivojlantirish lozim. Hikoya - biror voqeа, hodisani kengaytirib bayon qilishdir. Hikoya tasviriy va syujetli bo‘lishi mumkin. Tasviriy hikoya - bu biror pred- met yoki voqeanning o‘ziga xos tomonlarini bayon etishdir. Hikoyalar turlari va ularni o‘rgatishning izchilligi. Hikoya - biron-bir fakt, voqeanning mustaqil tuzilgan keng qam- rovli bayonidir.<sup>2</sup>

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

- 1.Ertaklar kitobi. Jild.2. ‘Tamaddun nashriyoti’, 2012.
- 2.Qiziqarli Ertaklar 3 ‘Nasaf nashriyoti’, 2010.

#### **Internet saytlari:**

- 1.<https://erkatoy.uz/uzb/kutubxona/ertaklar>
- 2.<https://uzbaza.uz/baxtli-bola-tarbiyalashning-muhim-sirlari/>
3. <https://fayllar.org/reja-suhbat-turlari.html?page=2>
4. <https://fanvatalim.uz/uz/article/46/>

---

<sup>2</sup> <https://fayllar.org/reja-suhbat-turlari.html?page=2>